

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA STEAM YONDASHUV ASOSIDA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH

**X.T.Xalilova**

*Nizomiy nomidagi TDPU "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kafedrası  
dotsenti*

**Aminova Madina Abulxayr qizi**

*Nizomiy nomidagi TDPU 5-kurs talabasi Qashqadaryo viloyati Kitob tumani*

**Kelajak maktab o'qituvchisining qo'lida**

Viktor Gyugo


**Annotatsiya:** *STEAM - hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlardan biri hisoblanadi. STEAM ta'lim texnologiyasi o'quvchilarni yangicha o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** *STEAM, ta'lim texnologiyasi, innovatsion metod, integratsiya, loyiha, o'quv- tadqiqot, bilim, ko'nikma, malaka.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga yangi tamoyillarni joriy etish to'g'risida"gi PQ 3931-sonli qarorida o'quvchilarga STEAM ta'lim dasturi orqali o'qitish tizimiga bosqichma-bosqich o'tilishi ko'zda tutilgan. Bugungi kunda Prezident maktablarida STEAM ta'lim dasturi asosida o'qitilish yo'lga qo'yilgan. STEAM ta'limi amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotga qo'llay olishni talab etadi. Maktablarimizda o'qituvchilarimizga yozuvlari ko'pligi sababli, asosiy fanlarga mavzularga vaqt etishmasligi, o'quvchilarimizning sonini xalqaro talablarga nisbatan ko'pligi, o'quvchilarga mavzularni mohiyatini ochib berishdagi uzulishlar, laboratoriya jihozlarini to'laqonli yetib bormasligi, qaysidir maktablarda umuman yo'qligi, ta'lim sifatini pasayib ketishidagi asosiy sabablardan hisoblanadi. Bunday muammolarni yechimini yosh pedagoglarga yangi dastur bo'yicha o'qitib, malakalarini oshirib, ularga yangi STEAM ta'lim dasturi mohiyatini ochib berish bilangina hal etsa bo'ladi. Dasturlarni bolalar bog'chalariga kiritish kerak. Maktabgacha yoshdan boshlab tanishtirilib, boshlang'ich sinflarda yanada mustahkamlab o'qitilib borilsa kelajagimiz ertalari bo'lgan yoshlarimiz yanada bilimli, yanada salohiyatli, komil inson bo'lishiga oz bo'lsada hissamizni qo'shgan bo'lamiz .

"Tabiiy fan" ni o'qitishda boshlang'ich sinflarda STEAM yondashuvga e'tibor qaratgan holda 3-sinf tabiiy fan darsligidan "O'simliklar olamining xilma-xilligi" mavzusiga e'tiborimizni qaratamiz.

Mavzuni amaliy qismiga o'tishdan avval nazariy bilimlar beriladi. Masalan,



Amerikada “Viktoriya ko’zachasi” nomli ajoyib o’simlikni uchratish mumkun. “Viktoriya ko’zachasi” nilufardoshlarga mansub ko’p yillik o’t. Orinoko va Amazonka daryolarining tinch oqadigan joylarida o’sadi. Uning barglari juda yirik, doira shaklida, deametri 2 metr. Bargning cheti tepaga bukilgan, usti ochyashil osti qizg’ish, ostida suvga botib turgan tomirlari va tikanlari bor. Bu o’simlik tomirlarida havo pufakchalari bulganidan bargi vazni 30-50 kilogrammgacha bo’lgan odamni suvda bemalol ko’tara oladi. Manzarali o’simlik sifatida oranjereya va botanika bog’larida o’stiriladi. Gulining diametri 40 sm. Gulining rangi oq, xushbo’y, bir yarim sutka davomida gullaydi. G’unchasi oqshom paytida suv yuzasiga ko’tarilib, oq bo’lib ochiladi, tong otgandan so’ng och qizil tusga kiradi. Ikkinchi kecha o’tib, tong otgach yana suv ostiga cho’kadi. Suv ostida ho’l meva hosil qiladi. Mevasi ichidagi no’xatdek urug’i iste’mol qilinadi.

Viktoriya ko’zachasi ustida tadqiqot o’tkazish uchun kichik guruhlarda ishlash samaraliroq natijani beradi. Mashg’ulotni yozib borish uchun bitta daftar kerak bo’ladi. Agarda biz mashg’ulotni butun sinf bilan o’tkazadigan bo’lsak, o’quvchilarga ko’rinadigan, doskada osiladigan, natijalarni yozsa bo’ladigan katta bannerdan foydalansak o’quvchilarga yanada tushunarliroq bo’ladi. O’quvchilarga tajriba o’tkazish, kuzatish, tushunmagan joyiga savol berish va natijani tadqiqot yakunida yozib olishini o’rgatishimiz kerak.

Kerakli jihozlar :

- Havoda qotadigan plastilin
- Plastik idish
- Suv

•Kishik guruhlarga o’tkazganimiz uchun guruh soniga qarab har bir guruhga plastilinni 2 xil rangidan, bittadan plastik idish, ma’lum miqdorda suvi kerak bo’ladi.


## Science

“Viktoriya ko‘zachasi” qanday suv ustida suzib yurishini ko‘rish.

1. Sariq va yashil plastilin oling.
2. “Viktoriya ko‘zachasi” ni rasmiga qarang.
3. Yuzasini sariq plastilindan, yon tomonlarini yashil plastilindan yasang.
4. Havoda biroz vaqt qoldiring.
5. Plastik idishga biroz suv soling.
6. Tayyor “Viktoriya ko‘zachasi”ni plastik idishga solingan suv ustiga quyung .
7. “Viktoriya ko‘zachasi” ni suv ustida harakatini kuzating.
8. Natijani daftaringizga yozing

## Texnology

1. “Viktoriya ko‘zachasi” o‘simligini yasab ko‘rish uchun necha xil rangli qog‘ozdan foydalaniladi?
2. “Viktoriya ko‘zachasi” o‘simligini rangli qog‘ozlar yordamida yasang.



## Engineering



1.2.



1.1



1.1. Dizayn

1.2. Qayta ishlangan dizayn

Qaysi dizayn ma'qul. 1.1 dizaynmi? Yoki 1.2 dizaynmi ?

## Art

1. Rasmlarni ketma ketligini topi , bo'yab chiqing.
2. Necha xil ranglardan foydalandingiz?



## Mathematics

1. Nilufardoshlarga mansub “Viktoriya ko‘zachasi” o‘simligini toping?
2. “Viktoriya ko‘zachasi” o‘simligi sonini topib, raqamlar bilan ifodalang?



**Xulosa:** Xorijiy ta'lim dasturi hamda metodikalarini darslarda qo'llash ta'lim tizimini samaradorligini oshiradi va o'quvchilarni ko'nikma hosil qilishga undaydi. STEAM ta'lim dasturini asosiy maqsadi nazariy bilimlarni, amaliyotga qo'llay olish, muammoli vaziyatlarda osongina yo'l topib chiqish, zamon talabi bo'lgan yangi va zamonaviy interaktiv metodlarni qo'llab o'qitishga qaratilgan. Yuqorida keltirilgan tajriba o'quvchilarga jamoa bilan ishlash qobiliyatini shakllantiradi, nazariy bilimlarni esda saqlash va amaliyotga tadbiiq etishni o'rgatadi, og'zaki nutqini rivojlantiradi hamda o'zlari yaratgan loyiha ishlarini jamoa oldida namoyish eta olish qobiliyatini shakllantiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. , "Xalq ta'limi tizimiga yangi tamoyillarni joriy etish to'g'risida" gi PQ 3931-sonli qarori. 5 .09.2018-yil.
2. Malikova Y.V. 3-sinf darsligi . Toshkent 2023.
3. Xalilova, X. T. (2020). Osobennosti ispolzovaniya vozmojnostey informatsionnix i kommunikatsionnix texnologiy v uchebnom protsesse po geografii. *Science and Education*, 1(9), 380-387.
4. Mirzaxmedovich, B. K., & Teshaevna, K. K. (2021). Fergana valley distribution landscapes establishment and exploration. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 286-289.
5. Xalilova, X. T., & Umarova, N. A. (2022). Geografiyani o'qitishda matematik savodxonlik. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 786-789.
6. Oxunboyev, M. I., & Xalilova, X. T. (2020). DIFFERENSIATSIYA V PROTSESSE OBUCHENIY. *Internauka*, (47-1), 70-71.
7. Xakberdiyev, O. E., Xalilova, X., & Alixo'jayeva, B. (2018). Vliyaniye erozii na urojaynost pshenitsi. *Simvol nauki*, (5), 69-71.
8. Xalilova, X. T. (1994). Problemi territorialnoy organizatsii prigorodnogo selskogo xozyaystva g. Samarkanda.
9. Hayitov, A., & Azizova, S. (2022). Abu nasr farobiyning "fozil odamlar shahri" asari-bugungi kun yoshlarining ma'naviyat maktabi sifatida. *Science and innovation*, 1(B7), 432-438.
10. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdieva, S. (2022). VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 72-77.
11. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdiyeva, S. (2022, June). ORGANIZATION OF EXCURSIONS IN PRIMARY SCHOOL CLASSES. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 139-143).

12. O'ktamovna, U. G. (2022). Ekologik-valeologik madaniyatni rivojlantirish muammolarini tadqiq etishga nisbatan metodologik yondashuvlar. *Conferencea*, 40-44.

13. Hayitov, A., & Mansurova, S. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinif o'quvchilarida ekologik kompetensiyalarni shakillantirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Science and innovation*, 1(B7), 1009-1015.

14. Norboy o'g'li, H. F. (2023). Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. *Journal of new century innovations*, 37(1), 44-48.

